Temperamentning kasbiy faoliyatidagi o’rni

Qo‘qon universiteti Pedagogiga va
psixologiya kafedrasi o’qituvchisi
Olimov Saydullo Soxobjonovich,
Tilavoldiyeva Ruxshona Vositbek qizi,
Qo‘qon universiteti Psixologiya yo‘nalishi
PS 1.22 - guruh talabasi
ruhshonaabdumannobova8@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada temperamentning kasbiy faoliyatdagi o‘rni, uning shaxs faoliyatiga ta’siri hamda individual faoliyat uslubining shakllanishidagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Faoliyatning individual uslubi, uning shakllanish omillari hamda temperament bilan bog‘liqligi alohida tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, temperament insonning kasbiy faoliyatida muhim o‘rin tutadi va u faoliyatning samaradorligidan ko‘ra, uni bajarish uslubiga ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, har bir shaxs o‘z temperamentiga mos faoliyat usullarini shakllantirish orqali yuqori natijalarga erishishi mumkin. Mazkur ishning amaliy ahamiyati shundaki, undagi xulosalar kasb tanlash, kadrlar tayyorlash va ularni joylashtirish jarayonlarida, shuningdek, shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali faoliyatni tashkil etishda qo‘llanilishi mumkin.

Abstract. This article scientifically analyzes the role of temperament in professional activity, its impact on personality, and its importance in the formation of an individual style of activity. The individual style of activity, the factors influencing its formation, and its relationship with temperament are examined separately. The results of the study show that temperament plays an important role in a person's professional activity and has a greater impact on the style of performing the activity than on its efficiency. Also, each person can achieve high results by forming methods of activity that are appropriate to his temperament. The practical significance of this work is that its conclusions can be used in the processes of choosing a profession, training personnel, and their placement, as well as in organizing effective activities taking into account the individual characteristics of the individual.

Kalit so‘zlar: Temperament, kasbiy faoliyat, individual xususiyatlar, shaxs psixologiyasi, faoliyat samaradorligi, individual faoliyat uslubi, nerv tizimi tiplari, kasbiy moslashuv.

Keywords: Keywords: temperament, professional activity, personality traits, individual style of activity, extraversion, introversion.

Kirish. Bugungi kunda jamiyatning jadal rivojlanishi, mehnat bozoridagi raqobatning kuchayishi va kasbiy faoliyatga qo‘yilayotgan talablarning ortib borishi shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini chuqur o‘rganishni taqozo etmoqda. Mamlakatimizda inson omilini yuksaltirish, kadrlar salohiyatini oshirish va har bir shaxsning individual xususiyatlarini inobatga olish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, Prezidentning “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” nomli asarida insonning individual imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ularning tashabbuskorligi, mas’uliyati va jamiyatdagi faol ishtirokini ta’minlash muhim vazifa sifatida belgilab berilgan[1].

Xususan, "O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha PF–21-son Farmonida inson kapitalini rivojlantirish va kadrlar salohiyatini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan[2]. Bu esa bevosita shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini, jumladan temperamentni hisobga olish zaruratini ko‘rsatadi. Mazkur farmonda, shuningdek, zamonaviy talablar asosida samaradorlik ko‘rsatkichlarini joriy etish, kadrlar faoliyatini baholash va ularni rivojlantirish tizimini takomillashtirish vazifalari ham belgilangan bo‘lib, bu jarayonda insonning psixologik xususiyatlari muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi[3][2].

Insonning individual-psixologik xususiyatlari, jumladan temperament masalasi sharq mutafakkirlari tomonidan ham chuqur o‘rganilgan. Jaloliddin Davoniy

[1] Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni. Manba: https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769

[3] O‘sha manba.

inson axloqi va ruhiy fazilatlarini tahlil qilar ekan, uning ichki sifatlari (xulq, fe'l, odat) kasbiy va ijtimoiy faoliyatdagi muvaffaqiyatni belgilovchi muhim omil ekanini ta'kidlaydi.Buyuk tabib va mutafakkir Abu Ali ibn Sino insonning fe'l-atvori va ruhiy holatini uning tabiiy xususiyatlari bilan bog'lab tushuntiradi. U o'zining "Tib qonunlari" asarida inson mijozi uning xulqi, sog'ligi va faoliyat samaradorligiga ta'sir qilishini ta'kidlaydi. Abu Nasr Forobiy insonning mukammallikka erishuvida uning tabiiy qobiliyatlari va ruhiy xususiyatlari muhim o'rin tutishini qayd etadi.

Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy insonning bilish jarayoni, qiziqishlari va qobiliyatlari uning tabiati bilan uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlaydi[4]. Ergash G'oziyev o'zining psixologiyaga oid asarlarida shaxsning individual xususiyatlari, jumladan temperament inson faoliyatining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi[5].

Adabiyotlar tahlili. B.R.Qodirov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham shaxsning individual xususiyatlari, jumladan temperamentning o'quv va kasbiy faoliyatdagi o'rni yoritilgan[6]. U shaxsning psixologik rivojlanishi va faoliyat samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy asoslab beradi.

Bunday shaxs xususiyatlari temperamenti, ekstrovertlik, interovertlik, neyrotizm, o'zini o'zini baholash, xavotirlik, emotsional potensial (barkarorlik), emotsional jalb qilinganlik sanaladi. Yu.M.Asadov tomonidan olib borilgan tadqiqot ishida maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi talablaridan kelib chiqqan holda kasb mahorati rivojlanishi omillari sifatida o'qituvchining individual-psixologik xususiyatlarini o'rganishning dolzarbligi ilgari surilgan. Unda o'qituvchi kasb mahoratining yaxlit komponentlarini tasniflovchi "o'qituvchining kasb mahorati", "o'qituvchining individual- psixologik xususiyatlari", "o'qituvchining psixologik tipi" kabi tushunchalarni belgilovchi o'qituvchining individual-psixologik xususiyatlarni psixologik tiplarda integrallashuvi va ularning malaka oshirish tashkiliy shakllarini tanlash motivatsiyasiga ta'sirini izohlovchi individual-psixologik xususiyatlarning o'qituvchi kasb mahoratini rivojlantirish omillari sifatida ahamiyatini ochib beruvchi ilmiy asoslangan ma'lumotlar keltirilgan[7].

[4] Beruniy A.R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. - Toshkent: Fan, 1968.

[5] G'oziyev E. Umumiy psixologiya. Toshkent: O'qituvchi, 2002.

[6] Qodirov B.R. Shaxs psixologiyasi. - Toshkent: Fan, 2008.

[7] Asadov Yu.M. O'qituvchining kasbiy-shaxsiy rivojlanishi va malaka oshirish tizimi. – Dissertatsiya ishi, Toshkent. 2018.

R.Z.G‘aynutdinovning doktorlik dissertatsiyasida o‘qituvchi pedagogik faoliyati komponentlari reapizatsiyasi darajasi, shaxsiy xossalari, omillari tahlili asosida kasbiy faoliyatning samaradorligini belgilovchi quyidagi mezonlarini ajratish mumkin.

Shaxsiy xossalar namoyon bo‘lishining yuqori darajalari pedagogik faoliyat komponentlarini ijodiy realizatsiyalaydigan progressiv o‘qituvchi tipini tiklanishiga ko‘maklashadi. Ular tadqiqotda ishtirok etganlarning 33,1% ini tashkil etgan. Shaxsiy-kasbiy xossalar namoyon bo‘lishi o‘rtacha ko‘rsatkichlari pedagogik faoliyat komponentlari realizatsiyasi o‘rtacha darajasiga to‘g‘ri keladi. Bunday standart tipdagi o‘qituvchilar 48,1 % ni tashkil etgan. O‘z “Meni” uchun past ko‘rsatkichga ega o‘qituvchilar o‘z kasbiy faoliyatida yetarlicha komponentga ega emas va ular 18,8% ni tashkil etgan .Shu tariqa faoliyat subyektining shaxsiy sifatlari temperament xususiyatlari bilan kasbiy muvafaqqiyatlilikning bog‘likdigi o‘z isbotini topgan[8].

R.B.Abduraxmonovaning “Pedagog va psixologlarda kasbiy yo‘nalganlikning kamol topishi” mavzusidagi dissertatsion ishida kasbiy pedagogik va psixologik yo'nalganlik komponentlari aniqangan va oliy o'quv yurtida tayyorgarlik davrida uning shakllanish dinamikasi temperament tiplariga monan o‘rganilgan. Bolaga kognitiv, emotsional va shaxsning temperamentiga monan xulq-atvor komponentlarining uyg‘unligi tarzida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy- psixologik ustanovka sifatidagi munosabatni o‘ganish psixologiya uchun yangilik hisoblanadi[9].

V.Kroford hozirgi zamon mutaxassisi muvaffaqiyatga erishish uchun ko‘rsatilgan 3 ta tushunchadan tashqari kasbiy mahorat ham kerakligini aytib o‘tadi.

Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra odamning hayotidagi xulq- atvori temperament xususiyatlari va kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liklik borligini ko‘rsatadi[10].

Har bir insonning temperament turi uning ish faoliyatiga bo‘lgan yondashuvi, qaror qabul qilish tezligi, stressga bardoshliligi va jamoa bilan o‘zaro munosabatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy ish muhitida esa nafaqat bilim va malaka, balki psixologik moslashuvchanlik, emotsional barqarorlik va samarali kommunikatsiya

[8] G‘aynutdinov R.Z. O‘qituvchining pedagogik faoliyati samaradorligi va shaxsiy xususiyatlari. – Doktorlik dissertatsiyasi, Toshkent, 2015.

[9] Abdurahmonova R.B. Pedagog va psixologlarda kasbiy yo‘nalganlikning kamol topishi. – Dissertatsiya ishi, Toshkent, 2018.

[10] V. Kroford. Conversation and Discussion. – New York, 1990.

muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Bu esa temperamentni hisobga olgan holda kasb tanlash va kadrlarni joylashtirish zaruratini yanada oshiradi.[11]

Bundan tashqari, noto‘g‘ri kasb tanlash yoki temperamentga mos kelmaydigan ish faoliyati bilan shug‘ullanish insonda stress, kasbiy charchoq va motivatsiyaning pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, temperament xususiyatlarini o‘rganish nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat, balki tashkilotlar samaradorligini oshirishda ham muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, bugungi globallashuv sharoitida insonlarning turli madaniy va kasbiy muhitlarga tez moslashishi talab etiladi. Bu jarayonda temperament muhim psixologik omillardan biri hisoblanadi uning ilmiy asosda o‘rganilishi dolzarb masalalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, temperamentning kasbiy faoliyatdagi o‘rnini o‘rganish bugungi kun psixologiyasi va amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologiya fanining ijtimoiy tarixiy-taraqqiyoti davrida temperamentga nisbatan bildirilgan mulohazalar, uning moddiy asosi to‘g‘risidagi talqinlar xilma-xil bo‘lib, shaxsning psixologik xususiyatlarini o‘ziga xos tarzda tushuntirish uchun xizmat qilib kelgan. Temperament lotincha "temperamentum" degan so‘zdan olingan bo‘lib, buning ma‘nosi "aralashma" degan tushunchani anglatadi. Temperament to‘g‘risidagi dastlabki ta‘limotni yunon olimi Gippokrat (eramizdan oldingi 460 - 356 yillarda yashagan) yaratgan bo‘lib, uning tipologiyasi to hozirgi davrgacha qo‘llanilib kelinmoqda[12].

Tadqiqot metodologiyasi va natijalari. Mazkur tadqiqot temperamentning kasbiy faoliyatdagi o‘rni hamda kasb tanlash motivlari bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot Andijon viloyati Buloqboshi tumani 55-son umumta’lim maktabining 11-sinf o‘quvchilari o‘rtasida tashkil etildi. Tadqiqotda jami 53 nafar respondent ishtirok etdi. Ulardan 31 nafari qizlar va 22 nafari o‘g‘il bolalardan iborat bo‘ldi.

- r=0,686
- r=0,489
- r=0,402
- r=0,491

[11] E.G‘oziyev. Umumiy psixologiya. darslik- Toshkent.: Universitet, 2002.

[12] F.I.Xaydarov N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya. darslik.Toshkent -2009. 357 b.

- r=0,529

Tadqiqot jarayonida respondentlarning kasbiy yo‘nalganligi va kasb tanlash motivlarini aniqlash maqsadida “Kasb tanlash motivini aniqlash” metodikasi qo‘llanildi. Shuningdek, G.Yu. Ayzenkning temperamentni aniqlash testi yordamida o‘quvchilarning ekstraversiya–introversiya hamda neyrotizm ko‘rsatkichlari o‘rganildi va ularning temperament tiplari belgilandi.

Olingan natijalarni qayta ishlashda matematik-statistik metodlardan, xususan korrelyatsion tahlil va Student t-mezonidan foydalanildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, ichki individual motiv va ichki ijtimoiy motiv o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi ($r=0,686$; $p<0,01$). Bu holat shaxsning ichki qiziqishlari va ijtimoiy ehtiyojlari o‘zaro uyg‘un ravishda shakllanishini ko‘rsatadi.

Temperament ko‘rsatkichlari bo‘yicha olib borilgan tahlillar ayrim psixologik omillar bilan bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, ularning ta’siri nisbatan past darajada ekanligi kuzatildi. Jumladan, emotsional barqarorlik va ishonchlilik darajasi o‘rtasida zaif, ammo statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik aniqlandi ($r=0,272$; $p<0,05$).

Jinslar kesimida o‘tkazilgan tahlil natijalariga ko‘ra, temperament va motivatsiya ko‘rsatkichlari bo‘yicha qizlar hamda o‘g‘il bolalar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlanmadi ($p>0,05$). Bu esa temperament va kasb tanlash motivlari jinsga bog‘liq emasligini, balki shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan belgilanishini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari temperament shaxsning kasbiy faoliyatida muhim o‘rin tutishini, u faoliyat samaradorligidan ko‘ra, faoliyatni amalga oshirish uslubiga ko‘proq ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Shuningdek, ichki motivatsiyaning ustunligi kasbiy muvaffaqiyatga erishishda muhim omillardan biri ekanligi aniqlandi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari temperamentning kasbiy faoliyatdagi o‘rni va kasb tanlash motivlari bilan bog‘liqligini tasdiqladi. Olingan natijalar Ye.A. Klimov, V.S. Merlin va boshqa psixolog olimlarning temperament faoliyat samaradorligidan ko‘ra, faoliyatni bajarish uslubiga kuchliroq ta’sir ko‘rsatishi haqidagi ilmiy qarashlari bilan mos keladi. Tadqiqot davomida ichki individual va ichki ijtimoiy motivlar

o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘liqlik aniqlangani shaxsning kasbiy faoliyatga ongli munosabati muhim omil ekanligini ko‘rsatdi. Jinslar o‘rtasida sezilarli farqlar aniqlanmaganligi esa temperament va motivatsiya ko‘rsatkichlari ko‘proq individual-psixologik xususiyatlar bilan belgilanishini tasdiqlaydi. Olingan natijalar kasb tanlash va kasbiy yo‘naltirish jarayonlarida shaxsning temperament xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Olingan natijalar kasbiy yo‘naltirish amaliyotida psixologik diagnostika metodlaridan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi. Temperament xususiyatlarini hisobga olish yoshlarning kasbiy moslashuvini oshirish va kasb tanlashdagi xatolarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, temperamentning kasbiy faoliyatdagi o‘rni, uning shaxs faoliyatiga ta’siri hamda kasb tanlash motivlari bilan o‘zaro bog‘liqligi nazariy va empirik jihatdan o‘rganildi. Tadqiqot davomida psixologiya fanida mavjud bo‘lgan ilmiy qarashlar tahlil qilinib, temperamentning shaxs faoliyatidagi ahamiyati asoslab berildi. Tadqiqot natijalari kasbiy yo‘naltirish, kadrlarni tanlash va joylashtirish, shuningdek psixologik maslahat xizmatlarini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

O‘tkazilgan empirik tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, temperament kasbiy faoliyat samaradorligiga bevosita emas, balki faoliyatni bajarish uslubi orqali ta’sir ko‘rsatadi. Turli temperament tiplariga ega bo‘lgan shaxslar bir xil kasbiy faoliyatda turlicha yondashuv va usullar orqali muvaffaqiyatga erishishi mumkinligi aniqlandi. Korrelyatsion tahlil natijalari motivatsiya turlari o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligini, ayniqsa ichki motivatsiyaning ustuvor ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Bu esa shaxsning kasbiy faoliyatga bo‘lgan ongli munosabati va ichki ehtiyojlari muhim rol o‘ynashini tasdiqlaydi. Temperament ko‘rsatkichlari bilan ayrim psixologik omillar o‘rtasida bog‘liqlik aniqlangan bo‘lsa-da, ularning ta’siri nisbatan past darajada ekanligi kuzatildi. Shuningdek, Student t-mezoni asosida o‘tkazilgan tahlillar natijasida jinslar o‘rtasida sezilarli farqlar aniqlanmadi. Bu esa temperament va kasb tanlash motivlari jinsga bog‘liq emasligini, balki shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan belgilashini ko’rsatdi.

Umuman olganda, temperament shaxsning kasbiy faoliyatida muhim o‘rin tutuvchi omil bo‘lib, u faoliyatning individual uslubini belgilaydi. Shuning uchun kasb tanlash, kadrlar tayyorlash va ularni joylashtirish jarayonida shaxsning temperament xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqlari va ma’ruzalari to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.1
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2024-yil PQ-231-son Qarori. Manba: https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmoni. Manba: https://lex.uz/uz/docs/-6981085
5. Abdurahmonova R.B. Pedagog va psixologlarda kasbiy yo‘nalganlikning kamol topishi. – Toshkent, 2018.
6. Asadov Yu.M. O‘qituvchining kasbiy-shaxsiy rivojlanishi va malaka oshirish tizimi. – Dissertatsiya ishi, Toshkent, 2018.
7. Beruniy A.R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: Fan, 1968.
8. Ibn Sino A.A. Tib qonunlari. – Toshkent: Fan, 1981.
9. Crawford V. Conversation and Discussion. – New York, 1990.
10. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan, 1993.
11. Klimov Ye.A. Psixologiya professionalnogo samoopredeleniya. – Moskva: MGU, 1984.
12. Merlin V.S. Ocherki teorii temperamenta. – Perm, 1973.
13. Pavlov I.P. Полное собрание сочинений, III tom, 2-kitob, 268-bet.
14. Pavlov I.P. Павловские среды, 11 tom, 244-bet.
15. Qodirov B.R. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2008.
16. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2009
17. G‘aynutdinov R.Z. O‘qituvchining pedagogik faoliyati samaradorligi va shaxsiy xususiyatlari. – Doktorlik dissertatsiyasi, Toshkent, 2015.
18. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
19. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2006